

**Janubiy Qoraqalpog‘istondagi inson tana a’zolari va tashqi ko‘rinishi
bilan bog‘liq ayrim laqablar haqida
Erkayeva Gulira’no. Urganch davlat universiteti
Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada antroponomik birlik hisoblangan laqab termini haqida, inson tana a’zolari va tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq laqablar tasnifi, Janubiy Qoraqalpog‘istondagiayrim laqablar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Laqab, ikkinchi nom, ibobiylar, salbiy bo‘yoq, tasnif

Abstract: This article provides information about the term nickname, which is an anthroponomic unit, the classification of nicknames related to human body parts and appearance, and some nicknames in Southern Karakalpakstan.

Key words: Nickname, second name, positive and negative color, classification

Qadimdan odamlarga xarakter xususiyati, kasb-kori, nasl-nasabi, harakatlari, jismoniy kamchiliklari yoki ajralib turadigan alohida belgisiga ko‘ra laqab berilgan. Laqablar doimo ismlar bilan birgalikda aytildi va bir xil ismli kishilarni bir biridan farqlashga xizmat qiladi. Laqabga o‘zbek tilining izohli lug‘atida esa quyidagicha ta’rif berilgan: “Laqab[a] -ikkinchi nom; laqab; taxallus]. Biror xususiyatiga ko‘ra kishilarga xazil qilib, masxaralab berilgan qo‘sishimcha nom; shuningdek ma’lum maqsadda o‘zgartirib olingan nom.” Laqablar dastlab biror kishi yoki bir nechta odam tomonidan biror maqsadni ko‘zlab berilsa-da, keyichalik u shaxsning doimiy ismi bilan qo‘silib aytildigan va shu orqali taniladigan bo‘ladi. Ular ba’zan salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lsa, ba’zan ijobjiy xususiyatlarni ifodalaydi. Masalan, Qo’qon xoni Olimxonning xalq tomonidan berilgan salbiy bo‘yoqdagi laqabini ko‘rib chiqsak. Is’hoqxon To‘ra Ibratning “Tarixi Farg‘ona” nomli asarida quyidagicha fikrlar bildirilgan: “Bu Olimxonning laqabi Zolimxon edi. Buning amakisi Hojibekni qatl qilib, ko‘b zulmlar chiqargan ediki, g‘azabindan, zulmidan Zolimxon mashhur va ma’ruf, munkiri tasavvuf edi. Ma’a mofihiyi o‘zini mutasharri bilib, ijroi shar’iddaosi-la ko‘p zulmlar qilur ekan”. Yoki Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani qahramoni Miryoqub obraziga har ishni eplagani uchun “epaqa” laqabi berilganligi unga ijobjiy xususiyatni yuklagan.

“Laqablarning qo‘yilishi doimo real asosga, motivga ega bo‘ladi. Ayniqsa, bu shaxsning jismoniy kamchiliklari va xarakteri, xatti-harakati bilan bog‘liq laqablarda

aniq ko'rindi."¹ Janubiy Qoraqalpog'istonagi laqablarni o'rganar ekanmiz, ularning ham qo'yilish sabablari reallikka asoslangan. Bu xususiyatni biz ko'proq tana a'zolari va tashqi ko'rinish bilan bog'liq laqablarda yaqqol uchratishimiz mumkin. Bunday turdag'i laqablarni o'z navbatida bir nechta tasnifga ham ajratishimiz mumkin:

Insonning tanasini rangi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *qora yoki, oq, sori, malla*;

Insonning ko'zi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *qiytar, ko'r, so'qir*;

Insonning sochi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *kal, jingalak, malla, takiz*;

Insonning gavdasi bilan bog'liq bo'lan laqablar: *dobbi, samiz, lo'ppish, tumaloq, shlanka, tayoq, qoq, gurji, kalta pakana, qiyshiq*;

Insonning yuzi yoki bosh qismi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *qosh, puchuq, yalpoq, ko'sa, shalpang*;

Insonning tanasi rangi bilan bog'liq bo'lgan laqablar asosan ular boshqalardan shu xususiyati bilan ajralib turganda beriladi. Janubiy Qoraqalpog'istondaagi odamlarning deyarli barchasi bug'doy rangdagi odamlardir va ular juda oq ham emas qora ham emas. Shu sababli oq, sariq yoki qora rangdagi odamlar uchrab qolsa, ularga shunday laqablar beriladi. Qora rangli odamlarga asosan *qora, qoravoy, negr* laqablarini berish odatiy holga aylangan va ikkita bir xil ismlilarni shunday laqab bilan ajratishadi. Bu laqablar ko'pincha masxaralash yoki xazil tariqasida aytiladi. *Oq* va *sori* laqablar ko'proq ijobjiy ma'noda qo'llanib faqat ikki odamni farqlashga xizmat qiladi: *Sotim qora, oq Asad, qora Asad, Zuhra sori*

Insonning ko'zi bilan bog'liq bo'lgan laqablardan biri *qiytar(g'ilay)*- qaraganda ko'z qorachiqlari bir tomonga yo'nalmaydigan, to'g'ri qaray olmaydigan, ko'z soqqasi qiyshiq o'rnashgan. *Jonibek qiytar*. Ko'rish qobliyati yo'q odamlarga nisbatan *ko'r, so'qir* laqablar odamlarni bir biridan ajratish uchun qo'llandsa-da, ba'zan bu laqablar masxaralash va xazil sifatida ham ishlatilishi mumkin. Sababi ko'z oldida turgan narsasini topa olmaydigan odamlar ham uchrab turadi. Bunday vaziyatlarga ko'p tushadigan odamlar shunday laqablar bilan "siylanadi".

Insonning sochi bilan bog'liq bo'lgan laqablar asosan soch rangi, tekis yoki noteksligi, soch miqdoringing kam yoki ko'pligiga qarab beriladi. *Kal* laqabi sochi butunlay yoki qisman to'kilib ketgan odamlarga nisbatan qo'llanadi: *Hasan kal, Ortig*

¹ E. Begmatov. O'zbek tili antroponomikasi. T.: Fan, 2013

kal. Sochi o‘ta tekis bo‘lgan odamlarga nisbatan *takiz* laqabi qo‘llanadi va bu laqab avloddan avlodga ham o‘tgan. Chunki bunday genetik belgilar meros bo‘lib o‘tishi tabiiy holatdir. *Samandar takiz.* Jingalak laqabi ham aynan shunday xususiyatga ega:*Mohira jingalak.* Soch rangini bildiruvchi laqablardan biri bo‘lgan *malla* laqabining ma’nosini ba’zi odamlar sochga nisabatan qo‘llangan deyishsa, ba’zilar tananing rangiga nisbatan qo‘llangan degan fikrni aytishadi. Bu laqabga mansub kishilarning ko‘rinishi yo qora emas yo sariq eamas. Shu sababdan bu ikki rangning aralashmasi bo‘gan malla rangi asos qilib olingan. Ularning sochlari malla rangda va bunday xususiyat laqab sifatida berilishiga xizmat qilgan.

Insonning gavdasi bilan bog‘liq bo‘lgan laqablar boshqalariga nisbatan salmoqlidir. Ko‘pincha semiz odamlar kuguga olinib *samiz*, *dobbi*, *do‘bon*, *lo‘ppish*, *tumaloq* kabi laqablar bilan nomlnadilar: *Mamat dobby*, *Jahongir lo‘ppish*, *Otavoy tumaloq*, *Olim samiz*. Ozg‘in odamlarga nisbatan esa *qoq*, *tayoq* kabi laqablarberilgan. Tayoqdek ozg‘in odam bo‘lganligi uchun tayoq laqabi berilgan bo‘lsa, qoq laqabining qo‘yilishida ikki xil qarash borligini ko‘rishimiz mumkin. Qoq laqabiga mansub kishilar haqiqatda oriq, yuzlari xuddi qoq(turshak)dek eti yo‘q odamlardir. Lekin bu laqab haqida yana bir qarash borki, hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Qoqlarning ota-bobolari shunchalik ziqna bo‘lishgan ekanki, bir bo‘lak go‘shtni bir yil davomida ovqatga solib, yemasdan quritib qo‘yib yana keyigi safar ovqat pishirganda qaynatib olib olib qo‘yisharkan. Xalq orasida go‘shtni quritib yeyish holatlari bor bo‘lgan ammo bir bo‘lak go‘shtdan bu drajada uzoq vat hech kim foydalanmagan ekan. Shu sababdan ham ularga *qoq* deb laqab qo‘yishgan bo‘lishlari mumkin. Bo‘yi past odamlarga nisbatan berilgan laqablar ham qiziqarlidir. Masalan, *gurji* laqabini olaylik. Bu so‘zning ma’nosи it zotlaridan biriga borib taqaladi. Bo‘yi past kichkina itlarning turi shunday ataladi va bu kichkina, past bo‘yli odamlarga laqab qo‘yilishiga asos bo‘lgan. Bunday turdagи laqablarga *pakana*, *kalta* laqablarini ham kiritishimiz mumkin. Inson gavdasi bilan bog‘liq bo‘lgan laqablardan yana biri *qishiq*. Bu laqabdagi odamlar bir tomoniga qiyshayib yurganligidan shunday laqab olishgan. *Og‘abek qishiq*.

Insonning bosh qismi va yuzi bilan bog‘liq bo‘lgan laqablar ham talaygina. Misol sifatida qosh laqabini olishimiz mumkin. *Qosh* laqabli odanlarning ta’kidlashicha, qadimda ularning ota-bobolari dehqonchilik bilan shug‘illanishgan va har doim o‘ziga to‘q yashashgan, ko‘p oziq-ovqatlarni zaxiraga qo‘yishadigan kishilar bo‘lishgan. Eng ahamiyatli jihatи ularning qoshlari qalin va uzun bo‘lgan. Ammo ularni qosh deb

atashlariga boshqa bir sabab bor. Bir yili xalq boshiga ocharchilik tushadi, bunday payda ular saxiylik qilib barchaga o‘zлari g‘amlab qo‘yan oziq-ovqatdan, nonlardan ulashadi. Ular g‘amLAGAN oziq-ovqat shunchalik ko‘p ekanki, ocharchilik tugab, bahor kelguncha hammaga yetgan ekan. Shunda odamlar aytishadiki, bu odamlar bizni qoshlar tomimizni tutib turgandek, bizni ocharchilikdan saqlab qolganlardir, deb ularni qosh laqabi bilan chaqira boshlashgan. Qosh - bu binolarning devor qismining yuqori joyiga qo‘yiluvchi va tomni ushlab turish vazifasini bajaruvchi yog‘ochdir. Ovshandan beri bu odamlarning avlodlari qosh laqabi bilan ataladi. *Yalpoq* laqabining kelib chiqish tarixi aynan qaysi davrga tegishli ekanligi ma’lum emas. Ammo shu narsa aniqki, bu laqabga mansub odamlarning bosh qismi orqasi tekis tushgan yoki yassi. Bu odamlarning bunday laqab bilan atalishiga saosiy sabab sifatida faqatgina ularning avlodlarining bosh qismi ham ajdodlariniki singari bo‘lganligidandir. Ammo bugungi kunga kelib yalpoq laqabi bilan ataluvchi odamlarning hammasi ham bunday ko‘rinishga ega emas. *Ko‘sа* laqabli insonlarni ham hayotimiz davomida ko‘p uchratamiz. Ko‘sа soqol-mo‘ylovi juda siyrak yoki butunlay yo‘q, chiqmaydigan² degan ma‘noni anglatadi. *Arka ko‘sа*. Yuz bilan bog‘liq laqab bo‘lgan laqablardan *puchuq* asosan kichkina bolalarga nisbatan erkalash ma’nosida qo‘llanganiga qaramay, kattalarda ham uchraydi. Puchuq qanshari past, burni yassi, yopishgan, kichik yoki shikastlangan³ ma’nosini anglatadi. *Manzura puchuq*.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Janubiy Qoraqalpog‘istondagi inson tana a’zolari va tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lgan laqablar salmoqli va ularning tasnifini yanada kengaytirish mumkin. Laqablarni ular uchun asos bo‘lgan motivga (tasodifiy hodisa, shaxsda mavjud bo‘lgan nuqsonlar va ijobiy fazilatlarga) ko‘ra tasnif qilinishi u⁴ yoki bu tildagi laqablar lug‘aviy nominativ tarkibini laqablarda ifodalangan milliy-ruhiy jarayonni aniqlashga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. E. Begmatov. O‘zbek tili antroponomikasi. T.:Fan, 2013
2. Is’hoqxon To‘ra Ibrat. Tarixi Farg‘ona. T.: Ma’naviyat. 2005
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Zyouz.com

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. K harfi. Zyouz.com

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. P harfi. Zyouz.com

⁴ E. Begmatov. O‘zbek tili antroponomikasi. T.:Fan, 2013